

BANKLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH USULLARI

Umarova Zevi

JizPI "Iqtisodiyot va menejment" kafedrası katta o'qituvchisi,

Khurmatov Behzod

Abu ali Ibn Sino nomidagi Tojikiston Davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada banklarning moliyaviy barqarorligini boshqarish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, bank tizimi, moliya, stress, Xalqaro Valyuta Fondi, siklik, monetaristik.

Annotation: this article provides information on ways to manage the financial stability of banks.

Keywords: financial stability, banking system, Finance, stress, International Monetary Fund, cyclic, monetaristic.

Moliyaviy barqarorlikni boshqarish usullari haqida gapirar ekanmiz, moliyaviy nobarqarorlik holatiga nima olib kelishi, ya'ni moliyaviy barqarorlik risklari haqida fikr yuritishimiz zarur bo'ladi. Chunki agar moliyaviy nobarqarorlik yuzaga kelish xavfi mavjud bo'lmasa uni boshqarishga ehtiyoj qolmaydi. Demak moliyaviy barqarorlikni emas, aksincha uning risklarini qanday samarali boshqarish haqida so'z yuritamiz.

Moliyaviy nobarqarorlikka 2 asosiy yondoshuv bir necha yillardan beri e'tirof etib kelinadi¹. Bular: siklik (davriy) va monetaristik yondoshuvlardir.

2023-yilda jahonda moliyaviy barqarorlik xatarlari oshdi. AQSh va Yevropa moliyaviy tizimlarida yuzaga kelgan noaniqlik bir qator banklarning moliyaviy yo'qotishlarga uchrashiga olib keldi. Bu esa, moliyaviy bozorlarda tahlika

¹ The theory and practice of financial stability Andrew Crocket, 1997

uygʻonishiga va tebranuvchanlikning oshishiga, investorlarda xatarga moyillikning pasayishiga va natijada, baʼzi banklarning defoltga uchrashlariga sabab boʻldi.

2022-yilda Oʻzbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlari tashqi va ichki xatarlarga nisbatan bardoshlilikini koʻrsatdi. Xususan, bank tizimida kapital monandiligi koeffitsiyenti Markaziy bank tomonidan oʻrnatilgan minimal talablarga nisbatan yuqori shakllangan boʻlib, banklarning iqtisodiyotni kreditlar bilan taʼminlash hamda potensial shoklar natijasida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan yoʻqotishlarni qoplash uchun yetarli darajada kapital bilan taʼminlanganini koʻrsatdi.

2022-yil yakuniga Oʻzbekistonda bank tizimining moliyaviy stress holati yaxshilandi. Iqtisodiy faollikning tiklanishi va moliya bozorining barqaror shakllanishi hamda moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlarining yaxshilanishi natijasida 2022-yil II choragidan boshlab moliyaviy stress indeksida pasayish trendi kuzatildi.

Hyman Minsky va Charles Kindlebergerlarning fikricha², muammoning yuzaga kelishi aktivlar narxining koʻtarilishidan boshlanadi. Buni –siklik boʻlib turuvchi voqea sifatida eʼtirof etiladi. Narxlarning oʻsishi keyinchalik ham bu trendning davom etishini bildirmaydi, lekin shunday oʻylangan holda bozorda aktivlarni sotib olinishi kuchayadi (adabiyotda bu holat –bandwagon effekti deb ataladi). Ammo vaqt oʻtgach, tashqi bir taʼsir natijasida narxlar keskin tushishi kuzatiladi. Bu ayniqsa banklar kabi oʻz mulkini asosan qarzga olingan mablagʻlardan shakllantirgan moliyaviy muassasalarga katta taʼsir koʻrsatadi.

Monetaristlar, xususan, Milton Friedman va Anna Schwartz kabilar moliyaviy nobarqarorlikning asosiy sababi monetar siyosat bilan bogʻliq deb taʼkidlashadi.

Bank moliyaviy barqarorligiga taʼsir etuvchi risklarni chuqur oʻrgangan holda, uni boshqarish imkoniyatini vujudga keltirish mumkin. Moliyaviy barqarorlikka taʼsir etuvchi risklar koʻpayib bormoqda, deya Xalqaro Valyuta

² The theory and practice of financial stability Andrew Crocket, 1997

Fondi o'zining yarim yillik hisobotida xabar bergan edi³. Buning asosiy omili qilib bank foydasi ko'rsatilgan. –To'g'ri, butunjahon iqtisodiy inqirozidan so'ng banklar ma'lum jihatdan anchagina kuchlilashdi. Kapital miqdori va moliyaviy mablag'larning oshganligi ularga zararlarni yengib o'tish imkonini beradi. Banklar likvidligi yaxshilandi. Ammo banklar uchun foyda olish qiyinlashib bormoqda. Bu esa banklar kapitallashuv darajasini sekinlashuviga olib keladi. Qolaversa, past daromadlilik sharoitida banklar tadbirkorlikni moliyalashtirishga qo'shimcha mablag' ajrata olmay qoladilar, - deyiladi Xalqaro Valyuta Fondi bayonotida.

Banklar boshqarilishi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi o'lchamlari sifatida quyidagi omillar kiradi⁴:

-sotsial siyosiy vaziyat mavjud hukumat barqarorligi ta'siri, moliyaviy iqtisodiy va sotsial siyosat zamon talablariga moslashtirilib borilishi ma'muriy huquqiy tuzilmalardagi barqarorlik yoki sotsial keskinlik, siyosiy yo'nalishi;

-umum iqtisodiy holat-iqtisodiyot real shubasining imkoniyatlari, ishlab chiqarish quvvatlari yangilanishi hamda safdan chiqishi, tovar ishlab chiqaruvchilar raqobatdoshligi, mamlakat to'lov balansi saldosini (eksport, import) resurslarni tarmoqdan-tarmoqqa o'tish imkoniyatlari investitsiyalar (sarmoyalar) kelishi, ketishi;

-moliya bozoridagi ahvol-bank omonatlarini jalb etish bo'yicha foiz stavkasi, pul bozori daromadlilik, qimmatli qog'ozlar daromadlilik, milliy valyutaning ayriboshlash kursi, valyutaga bo'lgan talab taklif hajmi, valyuta birjasidagi operatsiyalar, pul emissiyasi, pul qadrsizlanishi su'ratlari hamda shunday qadrsizlanishi borasidagi taxminlar, davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish, oltin valyuta rezervi hajmi, pul massasi taklifmahsulotlar raqobati;

-kredit muassasasining ichki barqarorligi strategiyasi va emissiyasi bor yo'qligini xodimlar professional malakasini bank menejmenti sifatini sarmoya yetarliligini aks ettiruvchi o'lchamlarini qamrab olishi mumkin.

Bank barqarorligini boshqarishning umumiy tarkibiy qismlari:

³ IMF warns of financial stability risks by Andrew Walker, BBC World Service economics news

⁴ www.finansy.ru - Finansy jurnalining sayti ma'lumotlari asosida

Bankning sarmoya bilan bog'liq barqarorligini boshqarishi. Bu bankning o'z sarmoyasi hajmlari bilan belgilanadi. Bank o'z sarmoyasi hajmlari qaytarilishi to'g'risidagi talablarni qondirishi uchun yetarli hajmdagi pul resurslari ko'zda tutilmagan zarar va qarzlarni qoplash, bank rivojlanishini moliyalash, fors-major (tushunmovchilik), ko'rib chiqilmagan vaziyat yuzaga kelganda tegishli hatti-harakatlar qilishi, doimiy o'zgaruvchi tashqi shart-sharoitlarga moslashish uchun rezerv bo'lishini ta'minlaydi.

Bankning tijorat bilan bog'liq barqarorligini boshqarish. Barqarorlikning bu turi asosini tijorat banki munosabatlari infrastrukturasi kirishib kelish darajasi tashkil etadi. Bular xususan davlat bilan o'zaro munosabatlar (tegishli aloqalar darajasi va mustahkamligi) banklararo munosabatlardagi ishtiroki butun iqtisodiyotning bank sohasi uchun tizim tashkil etish ahamiyati mamlakatdagi moliyaviy oqimlar ulushi ustidan nazorat kreditorlar, mijozlar va omonatchilar bilan munosabatlar sifati, sarmoyasi bilan eral sarmoya to'g'risidagi aloqa yaqinligi, tijorat banklarining sotsial ahamiyati, aktivlar va xususiy omonatlar asosiy ulushi yagona kredit munosabati homiyligida jamlanishi kabilardir.

Bankning funksional barqarorligini boshqarishda quyidagilar asos bo'ladi:

-tijorat banki ixtisoslashgan bank o'zi tanlagan bank mahsulot turlarini samaraliroq boshqarish imkonini beradigan tor doiradagi xizmatlarga ixtisoslashuvi;

-tijorat bank vazifalari kengashi yoki uning universallashtiruvchi aksariyat mijozlar ularning bank mahsulotlariga bo'lgan barcha talablarini bir bankda qondirilishini afzal ko'rishlari natijasida barqarorlik to'g'risida paydo bo'ladigan tasavvur shunday kengayishi yoki universallashtiruvchi uchun zamin hozirlaydi.

Tijorat banki faoliyatini tashkiliy tuzulish hamda u bajarayotgan maxsus bank xizmatlari doirasida tartibga soluvchi funksional texnologik xizmatlar hujjatlar bunday banklar tashkiliy-tarkibiy barqarorligini eng muhim o'lchamidir. Barqarorlikning bu turini bank moliyaviy barqarorligini boshqa iqtisodiy tarkibiy qismlari tavsifini uyg'unlashtiruvchi asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar belgilab beradi. Bular: bankning o'z mablag'alari hajmi tuzilishi, daromad va

foyda darajasi, bankning o‘z sarmoyasidan foyda olish meyori, likvidligining yetarliligi, o‘z sarmoyasi multiplikativ samaradorligi hamda bank qo‘shimcha qiymatini vujudga keltirishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лаврушин О.И. Банковское дело. – М.: КноРус, 2008. – С. 251.
2. National Bank of the Republic of North Macedonia, List of Systemically Important Banks, 2022.
3. Gulmira, U. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, 4(5), 314-319.
4. Hong Kong Monetary Authority, CA-B-2 “Systemically Important Banks” (V2) dated 23.04.2021, pp. 19–20.
5. Obidova, Feruza Yaxyoevna, and Zevi Odilovna Umarova. "Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda kadrlarning gender tengligi." *Educational Research in Universal Sciences* 2.3 (2023): 208-215.
6. Umarova, Z. O. "Business opportunity for tourism development." *Экономика и социум* 10 (2020): 275-278.
7. Obidova, F., and Z. Umarova. "Foreign experience of small business development." *Экономика и социум* 5-1 (2021): 376-379.
8. www.cbu.uz